

MAVZU. TA'LIM ISHTIROKCHILARI UCHUN TRENINGNI SHAKLLANTIRISH JARAYONI

1. [B – 1 ball]. Ta'lim ishtirokchilari uchun treningni shakllantirish jarayoni nechta bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin?

- A. 5
- B. 6
- C. 4
- D. 8*.

Manba: Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. — 176 с: ил. — (Серия «Практическая психология»).

2. [B – 1 ball] .Trening instituti qachon tashkil topgan?

- A. 1985 yil mart oyida
- B. 1993 yil mart oyida*.
- C. 1983 yil noyabr oyida.
- D. 1981 yil oktyabr oyida.

Manba: Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. — 176 с: ил. — (Серия «Практическая психология»).

3. [Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o'qib, to'g'ri javobni belgilang.

Trening jarayonida ishtirokchilardan biri trenerdan shubhalanib, o'z kechinmalarini berkitishga harakat qildi.

Trening jarayonda trener qaysi psixologik trening o'tkazish tamoyilini to'g'ri tushuntirmaganligi sababli ushbu vaziyat kelib chiqdi?

- A. Maxfiylik tamoyili*
- B. Faollik va interaktivlik tamoyili
- C. Yashirin bilimlarni aniqlash va rivojlantirish tamoyili
- D. Qulay va ishonchli muhit yaratish tamoyili

Manba: С.Н.Алимходжаева Ф.И.Ҳайдаров. Психологик тренинглари ишланмаси. 1-қисм (Амалиётчи психологлар учун). Тошкент. 2008 й. 37 б.

4. [Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o‘qib, to‘g‘ri javobni belgilang.

Trening jarayonida trener juda ko‘p ilmiy amaliy harakatlar ketma-ketligini terminlardan foydalangan holda tushuntirdi va buning natijasida ishtirokchilar tomonidan ko‘plab savollar berilib vaqt me‘yoriga rioya qilinmadi.

Trening jarayonda trener qaysi psixologik trening o‘tkazish tamoyiliga amal qilinmagan?

- A. Maxfiylik tamoyili
- B. Aniqlik va tushunarlilik tamoyili *
- C. Yashirin bilimlarni aniqlash va rivojlantirish tamoyili
- D. Qulay va ishonchli muhit yaratish tamoyili

Manba: С.Н.Алимходжаева Ф.И.Ҳайдаров. Психологик тренинглари ишланмаси. 1-қисм (Амалиётчи психологлар учун). Тошкент. 2008 й. 37 б.

5. [Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o‘qib, to‘g‘ri javobni belgilang. *Trening jarayonida deraza va eshiklar ochiq, juda shovqin, trening ishtirokchilaridan birini turmush o‘rtog‘i eshik orqasida kutib turardi, vaqti-vaqti bilan o‘z nigohini jarayonga tashlab ketardi.*

Trening jarayonda qaysi psixologik trening o‘tkazish tamoyiliga amal qilinmagan?

- A. Maxfiylik tamoyili
- B. Aniqlik va tushunarlilik tamoyili
- C. Yashirin bilimlarni aniqlash va rivojlantirish tamoyili
- D. Qulay va ishonchli muhit yaratish tamoyili *

6. [Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o‘qib, to‘g‘ri javobni belgilang.

Trening jarayonida trener joy etishmaganligi sababli o‘smirlar va kichik maktab yoshidagi bolalar bilan bir vaqtda trening olib bordi. Natijada o‘smir bolalar kichik maktab yoshidagi bolalarning gaplariga kulib ularni juda xijolat qildilar.

**Ta'lim ishtirokchilari uchun treningni shakllantirish jarayoni
quyidagi qaysi bosqichlarga e'tibor berilmagan?**

- A. Maqsadlarni aniqlash bosqichi.
- B. Ishtirokchilarni tahlil qilish bosqichi*.
- C. Mazmunni rejalashtirish bosqichi.
- D. Metodologiyani tanlash bosqichi.

Manba: С.Н.Алимходжаева Ф.И.Ҳайдаров. Психологик тренинглари ишланмаси. 1-қисм (Амалиётчи психологлар учун). Тошкент. 2008 й. 37 б.

7.[Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o'qib, to'g'ri javobni belgilang.

Trening jarayonida ishtirokchilardan birining bloknoti va ruchkasi yo'qligi sababli trener bergan vaziyatni tahlilini yozmadi va javob berish navbati kelganida xijolat bo'lganidan "men vazifani tushunmadim" deb javob berdi.

**Ta'lim ishtirokchilari uchun treningni shakllantirish jarayonining
qaysi bosqichlari to'g'ri tashkil etilmagan?**

- A. Maqsadlarni aniqlash bosqichi.
- B. Ishtirokchilarni tahlil qilish bosqichi.
- C. Resurslar va jihozlash bosqichi*.
- D. Metodologiyani tanlash bosqichi.

Manba: С.Н.Алимходжаева Ф.И.Ҳайдаров. Психологик тренинглари ишланмаси. 1-қисм (Амалиётчи психологлар учун). Тошкент. 2008 й. 37 б.

8.[Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o'qib, to'g'ri javobni belgilang.

Trening ishtirokchilaridan biri "uch yil oldin ham biz xuddi shu mavzuda trening o'tkansiz, lekin menda hech qanday o'zgarish bo'lmadi, o'sha paytda ham bizni fikrimizni hech kim so'ramagandi" deb trenerga e'tiroz bildirdi.

**Ta'lim ishtirokchilari uchun treningni shakllantirish jarayonini
qaysi bosqichiga e'tibor qaratilmagan?**

- A. Baholash va feedback bosqichi*.
- B. Ishtirokchilarni tahlil qilish bosqichi.
- C. Resurslar va jihozlash bosqichi.
- D. Metodologiyani tanlash bosqichi.

Manba: С.Н.Алимходжаева Ф.И.Ҳайдаров. Психологик тренинглари ишланмаси. 1-қисм (Амалиётчи психологлар учун). Тошкент. 2008 й. 37 б.

9. [М – 3 ball]. *Trening jarayonida ishtirokchilar juda ko‘p ma‘lumotlar berilayotganini va ularni eslab qolishga qiynalayotganliklarini, zerikarli bo‘layotganini aytib trenerga e‘tiroz bildirdilar. Ushbu vaziyatda trener qanday xatolarga yo‘l qo‘ydi?*

- A. Ishtirokchi markaziyliги tamoyiliga e‘tibor bermagan.
- B. Faollik va interaktivlik tamoyiliga e‘tibor bermagan*.
- C. Yashirin bilimlarni aniqlash va rivojlantirish tamoyiliga e‘tibor bermagan.
- D. Qulay va ishonchli muhit yaratish tamoyiliga e‘tibor bermagan.

Manba: Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. — 176 с: ил. — (Серия «Практическая психология»).

10. [М – 3 ball]. *Trening jarayonida trener ishtirokchilardan birining kayfiyati yo‘qligiga qaramay ushbu bosqichda hamma ishtirokchi o‘z navbati kelganda “gapirishi shart deb” ta’kidladi. Trening ishtirokchilari ancha vaqt ushbu ishtirokchini kutishlariga to‘g‘ri keldi, biroq ushbu ishtirokchi umuman fikrini bildirmadi.*

Ushbu vaziyatda trener qanday xatolarga yo‘l qo‘ydi?

- A. Ishtirokchi markaziyliги tamoyiliga e‘tibor bermagan*.
- B. Faollik va interaktivlik tamoyiliga e‘tibor bermagan.
- C. Yashirin bilimlarni aniqlash va rivojlantirish tamoyiliga e‘tibor bermagan.
- D. Qulay va ishonchli muhit yaratish tamoyiliga e‘tibor bermagan.

Manba: Горбушина О.П. Психологический тренинг. Секреты проведения. СПб.: Питер, 2007. — 176 с: ил. — (Серия «Практическая психология»).